

Bugun O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining birinchi ya'ni, onlayn ro'yxatdan o'tish bosqichi boshlandi

// 15.01.2026

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/bugun-o-zbekiston-respublikasida-aholi-va-qishloq-xo-jaligin>



Mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu tadbirning natijadorligini ta'minlash va sifatli o'tkazish maqsadida "O'zkiyosanoat" AJ vakillaridan iborat ishchi guruhi birlashtirilgan hududlarda qator amaliy ishlarni tashkil qilmoqda.



Prezidentimizning 2025-yil 19-sentabrdagi "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari A.Kurbanov boshchiligidagi ishchi guruhi poytaxtimizning Uchtepa tumanida bo'ldi.



Aholini ro'yxatga olish bo'yicha tuzilgan shtabda reja asosida tashkil etiladigan ishlar kelishib olindi, ayrim kamchiliklar joyida barataraf etildi.

Shuningdek, tumandagi "Katta Qani" MFYga tashrif buyurilib, tadbirga tayyorgarlik holati o'rganildi. Mahalla yettiligi vakillari bilan suhbat o'tkazilib, tegishli tavsiyalar berildi.

